

Hywanyñ Allagulyhan medresesi

Category: Kitapcy, Taryhy yerler

написано kitapcy | 23 января, 2025

Hywanyñ Allagulyhan medresesi OLLOQULIXON MADRASASI

Olloqulixon madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1834–35). Madrasa qurilishi Ichan qal'aning yaxlit ansambl bo'lib shakllanish tarixi bilan bog'liq. O'rta Osiyo me'morligida keng tarqalgan qo'shmadrassa uslubida, Ollo-qulixon timi, Xo'jamberdibiy madrasasi, Polvon darvoza bilan o'zaro bog'langan. O.m. sun'iy tepalik (bal. 3 m) ustiga kurilgan, shu tufayli qo'shni binolardan ancha baland ko'rinadi. Madrasi to'g'ri to'rtburchak tarhli (62,45×47,0 m), peshtog'i g'arbga qaragan. Bosh tarzini miyon-saroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning kurilgan sanasi saqlangan. Hovli (34,6×29,4 m) tomoni o'ziga xos, undagi 2 qavatli qator hujralar Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman tim gumbazlari chekkasiga joylashgan. Mas-jid va darexona (4,8×4,8 m) tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Devorlaridagi chuqur ravoqlar hisobiga xona keng ko'rinadi. Ayvon (5,5×5,5 m) Madrasa g'arbida joylashgan, mehrobi ganchli muqarnasdan «iroqi» uslubida bezatilgan. Hujralar (99 ta)ning har birida bittadan eshik, tobadoniga panjaralar o'rnatilgan.

<http://tarix.uz/olloqulixon-madrasasi/> Taryhy yerler